

ISSN 2181-9505
Doi Journal 10.26739/181-9505

Philosophy and Life

FALSAFA VA HAYOT • ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ

2026 №2 (33)



ISSN 2181-9505

Doi Journal 10.26739/2181-9505

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi

Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi

O'zbekiston falsafa jamiyati

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Международный научно-исследовательский центр Имам Бухари

при Кабинете Министров Республики Узбекистан

Философское общество Узбекистана

The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Imam Bukhari International Research Center under the Cabinet of Ministers
of the Republic of Uzbekistan

Philosophical Society of Uzbekistan

FALSAFA VA HAYOT

XALQARO JURNAL

ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ

PHILOSOPHY AND LIFE

INTERNATIONAL JOURNAL

2026 №2 (33)

Jurnal bir yilda 4 marta nashr qilinadi.

Журнал выходит 4 раза в год.

The journal is published 4 times in a year.



Toshkent

“Falsafa va hayot” xalqaro jurnal
“Философия и жизнь” международный журнал
“Philosophy and Life” international journal

Tahrir kengashi Abdildina, R.J. – Qozog‘iston FA akademigi, falsafa fanlari doktori, professor Mamedzade, I.R. – Azarbayjon FA Falsafa va sotsiologiya instituti direktori, falsafa fanlari doktori, professor Skarantino, L.M. – DSc, professor, (Italiya) Smirnov, A.V. – Rossiya FA akademigi, Rossiya falsafa jamiyati, falsafa fanlari doktori, professor (Rossiya) Seytaxmedova N.L. – Qozog‘iston FA akademigi, falsafa fanlari doktori, professor Tsuy Veyxan – Xitoy ijtimoiy fanlar Akademiyasi vitse-prezidenti, DSc, professor, (Xitoy) Chumakov, A.N. – Rossiya FA Falsafa instituti professori, falsafa fanlari doktori (Rossiya) Muassislar: Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy - tadqiqot markazi O‘zbekiston falsafa jamiyati Expert lawyers MCHJ Elc.uz Ro‘yxatga olinganligi haqidagi 1175 sonli guvohnoma O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 20.02.2018 yilda berilgan.	Bosh muharrir: Shermuhamedova, N.A. – f.f.d., professor (O‘zbekiston) Bosh muharrir o‘rinbosari: Aslanova, R. – f.f.d., professor (Azarbayjon) Mas’ul muharrir: Muhamedova, Z.M. – f.f.d., professor (O‘zbekiston) Tahrir hay’ati: Allahyarova, T., – f.f.d., professor (Azarbayjon) Andirjanova, G.A., – s.f.d., professor (Qozog‘iston) Abasov, A.S., – f.f.d., professor (Azarbayjon) Axamer, G. – f.f.d., professor (Avstriya) Buzarinejad, Y. – f.f.d., professor (Eron) Bilalov, M.I., – f.f.d., professor (Rossiya) Gabitov, T.X., – f.f.d., professor (Qozog‘iston) Gezalov, A.A., – f.f.n., professor (Rossiya) Kerimov, E. – f.f.d., professor (Azarbayjon) Kurmangalieva, G. K., – f.f.d., professor (Qozog‘iston) Kurbonova, L.A. – f.f.d.DSc, dotsent (O‘zbekiston) Lazarevich, A.A. – f.f.d., professor (Belorus) Olatunji, Feliks – PhD, dotsent (Nigeriya) Paxruddinov, Sh.I. – s.f.d., professor (O‘zbekiston) Pardayev, S. – falsafa doktori (PhD), (O‘zbekiston) Sergeev, M.Y., – professor (AQSh) Sagikizi, A. – f.f.d., professor (Qozog‘iston) Tulenova, G. J – f.f.d., professor (O‘zbekiston) Tesdelen, Vefa, – f.f.d., professor (Turkiya) Tyukmaeva A.M. – falsafa doktori PhD (O‘zbekiston) Hakimov N. H. – f.f.d., professor (O‘zbekiston) Xudoydodzoda, F.B., – f.f.d., professor (Tojikiston) Xudoyberganov, R. – f.f.d.DSc, (O‘zbekiston) Mahmadizoda, N. – f.f.d., professor (Tojikiston) Naushabaeva, A. H – falsafa doktori (PhD), professor (Turkiya) Urmanbetova, J.K., – f.f.d., professor (Qirg‘iziston) Chjan Baychun, – f.f.d., professor (Xitoy) Sharipova E.K. – f.f.d., professor (Qirg‘iziston) Ilmiy kotib: Xidirov, M.T. – falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘zbekiston) Musahhihlar: Qodirov J. – (O‘zbekiston) Po‘latov A. – (O‘zbekiston)
--	---

MUNDARIJA

SIYOSAT VA JAMIYAT FALSAFASI

Inaqov Qudratjon Qadirjonovich	MEDIASAVODXONLIK VA MA'NAVİY REFLEKSIYANING YOSHLAR MAFKURAVIY IMMUNITETINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY BILISH MEXANIZMLARI SIFATIDAGI AHAMIYATI	9-20
Sapayev Valisher Odilbek o'g'li	RAQAMLI GEOSIYOSIY MAKONNING MAFKURAVIY MUNOSABATLAR TIZIMIDAGI O'RNI	21-35
Seytalieva Nurzada Tugolbekovna	MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA MILLIY MAFKURA TRANSFORMATSIYASI VA UNING IJTIMOY ONGGA TA'SIRI	36-45
Usmonov Saidikromxo'ja Saidalieвич	KIBERZO'ROVONLIK VA KIBERBULLINGNING IJTIMOY VOQELIK SIFATIDAGI MOHIYATI	46-56

TA'LIM VA FAN FALSAFASI

Seytaxmedova Natalya Lvovna	DINIY TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISH VA YOSHLARNING MA'NAVİY-AXLOQIY QADRIYATLARINI SHAKLLANTIRISH	57-65
Qurbonova Lola Abdixodimovna	JAMIYAT TARAQQIYOTIDA ELITAR TARBIYANING IJTIMOY-FALSAFIY ASOSLARI VA UNING INTELLEKTUAL ELITA SHAKLLANISHIDAGI ROLI	66-76
Xidirov Mustaf o Toyirqulovich	ZAMONAVIY FAN TARAQQIYOTIDA BILIM VA FAOLIYATNING O'ZGARUVCHANLIGI VA DAVR RUHI BILAN INTEGRATSIYASI	77-86

FALSAFA TARIXI VA TARIX FALSAFASI

Oni Maykl Olatunji	SARTR GUMANIZMI AFRIKADA MADANIY IDEALLAR TRANSFORMATSIYASI UCHUN IMPERATIV SIFATIDA	87-98
Mayliyev Azamat Farxod o'g'li	STRATEGIK TAFAKKUR VA IJTIMOY MAS'ULIYATNING IJTIMOY-FALSAFIY ASOSLARI	99-109

DUNYO MADANIYATI VA DINIY AN'ANALAR

Ademola, Julius Olajide	GERASALIK JIN CHALINGAN KISHINING SHIFO TOPISHI GERMENEVTIKASI: CHRIST APOSTOLIC CHURCH, IBADAN, NIGERIYA MISOLIDA	110-122
Akinnavo Yetunde Abolaji, Deji Isaac Ayegboyin	NIGERIYADAGI AFRIKA PENTEKOSTALIZMIDA IDENTIFIKATSIYANING MA'NAVİY GRAMMATIKASI	123-136
Ganjiyev Shuxratjon Jurayevich	HARBIY XIZMATCHILAR MA'NAVİY DUNYOQARASHIDA MILLIY QADRIYATLAR VA GLOBAL OMMAVIY MADANIYAT TA'SIRINING IJTIMOY-FALSAFIY XUSUSIYATLARI	137-149
Tulyayev Avazbek Ilhomovich	SUN'IY INTELLEKT VA ZAMONAVIY JAMIYAT AXLOQIY ONGGINING TRANSFORMATSIYASI	150-160



Qurbonova Lola Abdixodimovna

falsafa fanlari doktori, professor

Andijon davlat universiteti

E-mail: lolaq805@gmail.com

(Toshkent, O'zbekiston)

**JAMIYAT TARAQQIYOTIDA ELITAR TARBIYANING IJTIMOIIY-
FALSAFIY ASOSLARI VA UNING INTELLEKTUAL ELITA
SHAKLLANISHIDAGI ROLI**

Annotatsiya. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida elitar tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u bilimli, tafakkuri chuqur va intellektual salohiyati yuqori bo'lgan shaxslarni shakllantirishga yo'naltirilgan muhim mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Biroq ayrim holatlarda bunday tizim ijtimoiy tengsizlikning chuqurlashishiga ham olib kelishi mumkinligi inkor etilmaydi, chunki ta'lim resurslariga kirish imkoniyatlaridagi tafovutlar turli ijtimoiy qatlamlar o'rtasida farqlarni kuchaytiradi. Shu bois ushbu maqola elitar tarbiyaning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini, uning intellektual elita shakllanishidagi o'rnini hamda zamonaviy jamiyatdagi ijobiy va salbiy tendensiyalarini ilmiy tahlil qilishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Elitar tarbiya, intellektual elita, ijtimoiy-falsafiy yondashuv, innovatsion rivojlanish, madaniy kapital, ta'lim tizimi.

KIRISH

Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida ta'lim tizimi va tarbiyaviy yondashuvlar inson kapitalini shakllantirishning asosiy omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu nuqtayi nazardan elitar tarbiya jamiyatning intellektual, madaniy va ma'naviy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy institut sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Elitar tarbiya konsepsiyasi jamiyatda yuqori bilim, tafakkur va ijodiy salohiyatga ega shaxslarni tayyorlashga qaratilgan bo'lib, u intellektual elitaning shakllanishida asosiy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Bunday yondashuv ilmiy taraqqiyotni jadallashtirish, innovatsion fikrlashni rivojlantirish va raqobatbardosh kadrlar tizimini vujudga keltirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, elitar tarbiyaning ijtimoiy-falsafiy asoslari jamiyatda bilim, adolat va imkoniyatlar tengligi masalalari bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu jarayonda ijtimoiy stratifikatsiya va elita shakllanishining nazariy jihatlarini muhim o'rin tutadi. Ushbu holat elitar tarbiyani faqat ta'lim tizimi emas, balki keng ijtimoiy-falsafiy fenomen sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Zamonaviy globallashtirish

sharoitida mamlakatlar o'rtasida intellektual resurslar uchun raqobat kuchayib borayotgani sababli, elitar tarbiyaning roli yanada ortib bormoqda. Bu esa milliy ta'lim modellarini modernizatsiya qilish va ularni xalqaro standartlarga moslashtirish zaruratini keltirib chiqaradi. Shu bois elitar tarbiyaning mohiyati, uning ijtimoiy-falsafiy asoslari hamda intellektual elitaning shakllanishidagi o'rnini chuqur ilmiy tahlil qilish mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi va zamonaviy jamiyat taraqqiyotini tushunishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR

Elitar tarbiyaning ijtimoiy-falsafiy asoslari va uning intellektual elita shakllanishidagi roli jahon va mahalliy ilmiy adabiyotlar, monografiyalar hamda zamonaviy tadqiqotlar asosida tizimli tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida mavzuga oid konseptual yondashuvlar qiyosiy va nazariy-metodologik nuqtayi nazardan o'rganildi. Xorijiy tadqiqotchilardan P. Bourdieu'ning ijtimoiy kapital va madaniy kapital nazariyasida ta'lim tizimi ijtimoiy stratifikatsiyani qayta ishlab chiqaruvchi mexanizm sifatida talqin etiladi. Uning fikricha, ta'lim orqali elita o'z ijtimoiy mavqeini mustahkamlab boradi [Bourdieu 1986 b]. C. Wright Mills esa "hokimiyat elitasi" nazariyasida siyosiy, iqtisodiy va harbiy elitaning o'zaro bog'liq tizimini asoslab beradi [Mills 1956 b]. A. Gramsci esa madaniy hegemonlik orqali jamiyatda elitaning ta'sirini saqlab qolish mexanizmlarini yoritadi [Gramsci 1971 b]. Qiyosiy tahlil natijasida aniqlanishicha, G'arb olimlarining qarashlarida elita ko'proq ijtimoiy kuch va stratifikatsiya bilan bog'liq jarayon sifatida izohlanadi, Sharqiy yondashuvlarda esa u ko'proq ma'naviy yuksalish va intellektual taraqqiyot omili sifatida talqin qilinadi. Bu esa metodologik jihatdan turli ilmiy paradigmalar mavjudligini ko'rsatadi. A. Gramscining hegemonlik nazariyasi tanqidiy tahlil etilganda, uning jamiyatda elita ustunligini asoslashga ko'proq e'tibor qaratgani, ammo ta'limning ijodiy va transformatsion rolini yetarlicha ochib bermagani aniqlanadi. Shu jihatdan uning yondashuvi bir qator cheklanganliklarga ega ekani ta'kidlanadi [Gramsci 1971 b]. O'zbekistonlik olimlardan M. Sharifxo'jaev va E. Yusupov asarlarida elitar tarbiya milliy qadriyatlar va zamonaviy ta'lim integratsiyasi kontekstida tahlil qilinadi. Ular intellektual elita jamiyat barqarorligi va innovatsion rivojlanishning muhim omili sifatida ko'riladi [Sharifxo'jaev 2010 b; Yusupov 2015 b]. Ayrim mahalliy tadqiqotlarda esa elitar tarbiyaning ijtimoiy tenglikka ta'siri masalasi to'liq yoritilmaganligi kuzatiladi. Bu holat mazkur muammoni yanada keng empirik va nazariy asosda o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, tarixiy-mantiqiy tahlil va kontent-analitik metodlardan foydalanildi. Ushbu metodlar orqali elitar tarbiyaning ijtimoiy-falsafiy mohiyati, xorijiy va mahalliy yondashuvlar o'rtasidagi farqlar hamda intellektual elitaning shakllanish mexanizmi kompleks tarzda tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Elitar tarbiya zamonaviy jamiyat taraqqiyotining strategik omillaridan biri sifatida insonning intellektual, ma'naviy va axloqiy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi murakkab ijtimoiy-falsafiy hodisa hisoblanadi. U faqat ma'lum bilim va ko'nikmalarni shakllantirish bilan cheklanmay, balki jamiyat taraqqiyotiga ta'sir ko'rsata oladigan kreativ, tanqidiy va strategik tafakkurga ega shaxslarni voyaga yetkazishga yo'naltiriladi. Shu sababli elitar tarbiya inson kapitalining sifat jihatdan yangi bosqichini shakllantiruvchi tizim sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa globallashtirish va axborotlashuv sharoitida intellektual resurslar davlatlarning asosiy raqobat omiliga aylanayotgani elitar tarbiyaning ijtimoiy ahamiyatini yanada oshirmoqda. Ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan qaralganda, elitar tarbiya jamiyatning ma'naviy va madaniy reproduksiyasini ta'minlovchi mexanizm sifatida ham namoyon bo'ladi. Chunki ushbu tizim orqali jamiyat o'zining ilmiy qadriyatlari, intellektual an'analari va madaniy tajribasini keyingi avlodlarga uzatadi. Natijada elitar tarbiya nafaqat individual rivojlanish vositasi, balki sivilizatsion taraqqiyotning davomiyligini ta'minlovchi muhim omilga aylanadi. Shu jihatdan u jamiyatning strategik barqarorligini ta'minlovchi ijtimoiy institut sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. P. Bourdieu nazariyasida ta'lim tizimi "madaniy kapital"ni shakllantirish va uni avlodlardan avlodga uzatish mexanizmi sifatida talqin qilinadi [Bourdieu 1986 245]. Olimning fikricha, elitar ta'lim muassasalari jamiyatdagi ustun ijtimoiy qatlamlarning madaniy va intellektual ustunligini saqlab qolishga xizmat qiladi. Bu jarayonda til madaniyati, estetik did, ilmiy dunyoqarash va kommunikativ kompetensiyalar muhim kapital shakliga aylanadi. Bourdieu ushbu holat orqali ta'lim tizimi jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni yashirin tarzda qayta ishlab chiqarishini ko'rsatadi. Uning qarashlari elitar tarbiyaning ikki tomonlama mohiyatga ega ekanligini anglatadi: bir tomondan, u yuqori malakali intellektual qatlamni shakllantiradi, ikkinchi tomondan esa ijtimoiy tabaqalanishni kuchaytirishi mumkin. C. Wright Mills esa elita tushunchasini hokimiyat strukturalari bilan bog'liq holda tahlil qiladi [Mills 1956 18]. Unga ko'ra, siyosiy, iqtisodiy va harbiy sohalaridagi yuqori qatlam vakillari jamiyat boshqaruvida asosiy ta'sir kuchiga ega bo'lib, elitar ta'lim ushbu tizim uchun kadrlar tayyorlash vazifasini bajaradi. Mills nazariyasida bilim va hokimiyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik alohida o'rin egallaydi. Chunki intellektual resurslarga egalik qiluvchi qatlam ijtimoiy jarayonlarni boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu yondashuv elitar tarbiyaning nafaqat pedagogik, balki siyosiy va geostrategik funksiyalarini ham ochib beradi. Zamonaviy ilmiy qarashlarda elitar tarbiya innovatsion taraqqiyotning muhim omili sifatida talqin qilinmoqda. Chunki ilm-fan, texnologiya va raqamli iqtisodiyot rivojlanayotgan davrda kreativ tafakkurga ega intellektual elita davlatning global maydondagi raqobatbardoshligini belgilaydi. Shu bois rivojlangan davlatlar elitar ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ilmiy markazlar va innovatsion universitetlar faoliyatini qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratmoqda. Mazkur tendensiya elitar tarbiya masalasining faqat pedagogik emas, balki strategik rivojlanish modeli bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Elitar tarbiya jamiyat taraqqiyotining falsafiy, siyosiy va madaniy asoslarini belgilovchi ko'p

qirrali fenomen hisoblanadi. U jamiyatda intellektual salohiyatni oshirish, innovatsion rivojlanishni jadallashtirish va strategik fikrlovchi kadrlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu tizim ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlar tamoyillari bilan uyg'unlashtirilgan holda rivojlantirilmasa, jamiyatda tabaqalanish va ijtimoiy tafovutlarning kuchayishiga ham olib kelishi mumkin. Intellektual elita jamiyat taraqqiyotining ilmiy, texnologik va ma'naviy yo'nalishlarini belgilovchi muhim ijtimoiy qatlam hisoblanadi. U nafaqat yuqori bilim va malakaga ega bo'lgan mutaxassislarni, balki strategik tafakkur yurita oladigan, innovatsion g'oyalarni ilgari suradigan va jamiyat rivojlanishining istiqbolli yo'nalishlarini aniqlay oladigan shaxslarni ham o'z ichiga oladi. Shu sababli intellektual elita masalasi zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarning markaziy mavzularidan biriga aylangan. Ayniqsa, postindustrial va axborotlashgan jamiyat sharoitida bilim asosiy resurs sifatida namoyon bo'layotgani intellektual elitaga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda. Intellektual elitaning shakllanishi avvalo ta'lim tizimining sifati bilan chambarchas bog'liqdir. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, kuchli universitetlar, ilmiy markazlar va akademik muhit mavjud bo'lgan jamiyatlarda intellektual qatlamning shakllanish jarayoni tezlashadi. Masalan, AQSh va Yevropa mamlakatlarida ilmiy tadqiqot universitetlari innovatsion taraqqiyotning asosiy markazi sifatida faoliyat yuritadi. Sharq davlatlarida, xususan Yaponiya va Janubiy Koreyada esa intellektual elita shakllanishida nafaqat bilim, balki intizom, jamoaviy mas'uliyat va milliy qadriyatlarga sodiqlik ham muhim omil sifatida qoraladi. Bu esa G'arb va Sharq modellari o'rtasida metodologik farqlar mavjudligini ko'rsatadi. A. Gramsci intellektual elita masalasini mafkuraviy yetakchilik nuqtayi nazaridan tahlil qilib, "organik ziyolilar" konsepsiyasini ilgari suradi [Gramsci 1971 33]. Uning fikricha, jamiyat taraqqiyoti jarayonida intellektual qatlam nafaqat ilmiy faoliyat bilan shug'ullanadi, balki ijtimoiy ong va mafkuraviy qarashlarning shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Gramsci intellektual elitaning jamiyatdagi madaniy gegemonlikni ta'minlashdagi rolini alohida ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv intellektual elitaning faqat akademik emas, balki siyosiy va madaniy ta'sir kuchiga ham ega ekanligini ko'rsatadi. P. Bourdieu esa intellektual elita shakllanishini "madaniy kapital" tushunchasi orqali izohlaydi [Bourdieu 1986 247]. Olimning qarashlariga ko'ra, jamiyatda yuqori madaniy kapitalga ega bo'lgan guruhlar ta'lim tizimi orqali o'z mavqeini mustahkamlab boradi. Til madaniyati, ilmiy dunyoqarash, estetik did va kommunikativ kompetensiyalar elitaga xos ustunlik sifatida namoyon bo'ladi. Bourdieu yondashuvi Gramsci nazariyasidan farqli ravishda intellektual elitaning shakllanishida ijtimoiy kelib chiqish va madaniy muhitning ta'siriga ko'proq urg'u beradi. Bu esa elita shakllanishida faqat individual iste'dod emas, balki ijtimoiy sharoit ham muhim rol o'ynashini anglatadi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda intellektual elitaning shakllanishi innovatsion infratuzilma bilan bevosita bog'liq holda talqin qilinmoqda. Chunki raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va global axborot oqimlari hukmron bo'lgan davrda kreativ va moslashuvchan tafakkurga ega kadrlarni tayyorlash strategik ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois rivojlangan mamlakatlarda STEM-ta'lim, ilmiy laboratoriyalar va startap ekotizimlarini

rivojlantirishga katta mablag' yo'naltirilmoqda. Mazkur tendensiya intellektual elita shakllanishining an'anaviy modeldan innovatsion modelga o'tayotganini ko'rsatadi.

O'zbekiston tajribasida ham intellektual elita shakllanishi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. So'nggi yillarda Prezident maktablari, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar, xalqaro universitetlar hamda ilmiy markazlarning tashkil etilishi yuqori malakali intellektual kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirishga qaratilgan. M. Sharifxo'jaev jamiyat taraqqiyotida bilimli va mustaqil fikrlovchi kadrlarning o'рни hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi [Sharifxo'jaev 2010. 68]. Ushbu yondashuv intellektual elitaning milliy taraqqiyot strategiyasidagi rolini ochib beradi. Intellektual elita tabiiy ravishda emas, balki murakkab ijtimoiy institutlar, sifatli ta'lim tizimi, ilmiy muhit va madaniy kapital asosida shakllanadi. Shu bilan birga, bu jarayon davlat siyosati, iqtisodiy rivojlanish va jamiyatning ma'naviy qadriyatlari bilan ham uzviy bog'liqdir. Intellektual elita shakllanishining samaradorligi bevosita innovatsion taraqqiyot, milliy raqobatbardoshlik va jamiyatning strategik rivojlanish darajasini belgilab beradi. G'arb ilmiy an'anasida elitar tarbiya masalasi asosan ijtimoiy tabaqalanish, hokimiyat munosabatlari va jamiyatdagi resurslar taqsimoti bilan bog'liq holda o'rganiladi. Ushbu yondashuvda elita jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy boshqaruvini amalga oshiruvchi yuqori qatlam sifatida talqin qilinadi. Shu sababli elitar ta'lim tizimi ko'pincha jamiyatdagi ustun ijtimoiy guruhlarning mavqeini saqlab qolish va reproduksiya qilish vositasi sifatida baholanadi. Ayniqsa XX asr G'arb sotsiologiyasi va siyosiy falsafasida elita masalasi hokimiyat va bilim o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik nuqtayi nazaridan keng tadqiq etilgan. C. Wright Mills o'zining "hokimiyat elitasi" nazariyasida AQSh jamiyatidagi siyosiy, iqtisodiy va harbiy elitaning o'zaro integratsiyalashgan tizimini tahlil qiladi [Mills 1956 22]. Olimning fikricha, jamiyatdagi asosiy strategik qarorlar tor doiradagi yuqori tabaqa vakillari tomonidan qabul qilinadi. Shu jihatdan elitar tarbiya mazkur qatlam uchun zarur bo'lgan mafkuraviy va intellektual tayyorgarlikni shakllantirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Mills ta'lim tizimini hokimiyat strukturalari bilan bog'liq holda ko'rib, nufuzli universitetlar va yopiq akademik institutlar elita reproduksiyasining muhim mexanizmi ekanligini ta'kidlaydi. P. Bourdieu esa elita shakllanishini "madaniy kapital" va "ijtimoiy reproduksiya" tushunchalari orqali izohlaydi [Bourdieu 1986 250]. Uning nazariyasiga ko'ra, jamiyatdagi yuqori qatlam vakillari o'z madaniy ustunligini ta'lim tizimi orqali keyingi avlodlarga uzatadi. Bourdieu til madaniyati, estetik did va ilmiy dunyoqarashni elita mavqeini belgilovchi asosiy omillar sifatida ko'rsatadi. Bu yondashuv Mills nazariyasidan farqli ravishda hokimiyatning siyosiy emas, madaniy mexanizmlariga ko'proq e'tibor qaratadi. Shu sababli Bourdieu ta'lim tizimining yashirin ijtimoiy funksiyalarini ochib berishga intiladi. M. Weber qarashlarida esa elita masalasi legitim hokimiyat va byurokratik boshqaruv tizimi bilan bog'liq holda tahlil qilinadi [Weber 1978 926]. Weberning fikricha, zamonaviy jamiyatda professional bilim va ratsional boshqaruv elita shakllanishining asosiy mezoniga aylanadi. U an'anaviy aristokratik elitadan farqli ravishda texnokratik va professional elitaga katta ahamiyat beradi. Mazkur

yondashuv Gʻarb jamiyatida bilim va malakaning ijtimoiy mavqeni belgilashdagi rolini koʻrsatadi. Vilfredo Pareto esa jamiyat taraqqiyotini “elitalar aylanishi” nazariyasi orqali tushuntiradi [Pareto 1935 1423]. Olimning fikricha, har qanday jamiyatda hukmron elita vaqt oʻtishi bilan yangilanib boradi va bu jarayon ijtimoiy tizim barqarorligini taʼminlaydi. Pareto elitani “sherlar” va “tulkilar” tipiga ajratib, hokimiyatni saqlab qolish strategiyalarini tahlil qiladi. Uning qarashlari elita shakllanishining siyosiy-psixologik jihatlarini yoritishi bilan ahamiyatlidir. Robert Michels esa “oligarxiyaning temir qonuni” konsepsiyasida har qanday demokratik tashkilot vaqt oʻtishi bilan tor elit guruh qoʻliga oʻtishini asoslaydi [Michels 1915 365]. Uning fikricha, tashkilotlar murakkablashgani sari boshqaruv professional elitaga ehtiyoj sezadi va bu tabiiy ravishda hokimiyat markazlashuviga olib keladi. Ushbu nazariya elitar tarbiya va boshqaruv tizimi oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlikni koʻrsatadi. Qiyosiy tahlil shuni koʻrsatadiki, Mills va Michels elita masalasini koʻproq siyosiy hokimiyat nuqtayi nazaridan tahlil qilsa, Bourdieu madaniy va ijtimoiy reproduksiya mexanizmlariga urgʻu beradi. Weber esa professionalizm va ratsional boshqaruvni elita shakllanishining muhim mezon sifatida talqin qiladi. Pareto qarashlarida esa elitarning almashinuvi jamiyat taraqqiyotining tabiiy qonuniyati sifatida koʻriladi. Demak, Gʻarb ilmiy anʼanasida elitar tarbiya va elita masalasi turli metodologik paradigmalarda oʻrganilgan boʻlsa-da, ularning barchasida bilim, resurs va hokimiyat oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik markaziy oʻrin egallaydi. Gʻarb yondashuvlarida elitar tarbiya koʻproq struktural-sotsiologik va siyosiy-falsafiy kontekstda talqin qilinadi. Ushbu qarashlar elitar taʼlimning jamiyatdagi hokimiyat, madaniy kapital va ijtimoiy tabaqalanish bilan bevosita bogʻliq ekanligini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Sharq ilmiy-falsafiy anʼanalarida elitar tarbiya masalasi koʻproq maʼnaviy yetuklik, axloqiy komillik va “komil inson” konsepsiyasi bilan bogʻliq holda talqin qilinadi. Gʻarb yondashuvlaridan farqli ravishda Sharq tafakkurida intellektual elita jamiyat ustidan hukmronlik qiluvchi qatlam emas, balki maʼrifat va adolatni qaror toptiruvchi maʼnaviy kuch sifatida baholanadi. Shu sababli Sharq falsafasida bilim insonning nafaqat ijtimoiy mavqeini, balki uning axloqiy kamolotini ham belgilovchi mezon sifatida qaraladi. Bu holat elitar tarbiyaning maʼnaviy va tarbiyaviy mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi. Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida jamiyat taraqqiyoti bilimli va axloqan yetuk insonlar faoliyatiga bogʻliq ekanligini taʼkidlaydi. Uning fikricha, jamiyatni boshqaruvchi shaxslar chuqur ilm, yuksak tafakkur va adolat tamoyillariga ega boʻlishi zarur [Forobiy 1993 112]. Forobiy qarashlarida elita tushunchasi hokimiyat yoki boylik bilan emas, balki maʼnaviy va intellektual yetuklik bilan belgilanadi. Mazkur yondashuv Sharq ilmiy tafakkurida elitar tarbiyaning asosiy mezon sifatida komil inson gʻoyasi ustuvor boʻlganini koʻrsatadi. Ibn Sino esa inson kamolotida ilm-fan va tarbiyaning uygʻunligini alohida taʼkidlaydi [Ibn Sino 1980 57]. Unga koʻra, insonning haqiqiy yetukligi faqat nazariy bilim bilan emas, balki axloqiy tarbiya va amaliy faoliyat bilan ham belgilanadi. Shu jihatdan Ibn Sino qarashlari zamonaviy elitar taʼlim konsepsiyalariga yaqin boʻlib, unda intellektual salohiyat va maʼnaviy qadriyatlar oʻrtasidagi uygʻunlik asosiy oʻrin egallaydi. Sharq mutafakkirlarining qarashlari

qiyosiy tahlil etilganda, Forobiy ko‘proq jamiyat boshqaruvida ma‘rifatli shaxslarning roliga urg‘u bergani, Ibn Sino esa individual kamolot va ilmiy tafakkur masalasini chuqurroq tahlil qilgani kuzatiladi. Har ikkala mutafakkir qarashlarida ham intellektual elita jamiyat barqarorligini ta‘minlovchi kuch sifatida talqin qilinadi. Bu jihat Sharq ilmiy an‘analarining G‘arbdagi struktural-sotsiologik yondashuvlardan farqlanishini ko‘rsatadi. O‘zbekiston ilmiy maktabida elitar tarbiya masalasi milliy qadriyatlar, ma‘naviy meros va zamonaviy ta‘lim integratsiyasi asosida tahlil qilinmoqda. M. Sharifxo‘jaev davlat va jamiyat taraqqiyotida bilimli hamda mustaqil fikrlovchi kadrlarning strategik ahamiyatga ega ekanligini ta‘kidlaydi [Sharifxo‘jaev 2010 64]. Olimning fikricha, zamonaviy taraqqiyot modeli intellektual salohiyat va innovatsion tafakkur bilan chambarchas bog‘liqdir. Mahalliy tadqiqotlarda elitar tarbiya ko‘proq pragmatik va integrativ model sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ya‘ni bunda milliy qadriyatlar, ma‘naviy tarbiya va zamonaviy innovatsion bilimlarni uyg‘unlashtirish asosiy maqsad sifatida qaraladi. Ayniqsa Prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalari va xalqaro universitetlar faoliyati intellektual elita shakllanishining institutsional asoslarini kuchaytirmoqda. Sharq va O‘zbekiston ilmiy qarashlarida elitar tarbiya masalasi insonning ma‘naviy kamoloti, ilmiy tafakkuri va ijtimoiy mas‘uliyati bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilinadi. Ushbu yondashuvlarda intellektual elita jamiyat ustidan hukmronlik qiluvchi qatlam emas, balki jamiyat barqarorligi va taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ma‘rifiy kuch sifatida baholanadi. Natijada O‘zbekiston modeli Sharq ma‘naviy merosi va zamonaviy innovatsion ta‘lim paradigmasining uyg‘unlashuvi asosida shakllanayotganini ko‘rish mumkin. Elitar tarbiya zamonaviy jamiyat rivojlanishining muhim strategik omillaridan biri sifatida ilmiy-texnologik taraqqiyot, iqtisodiy o‘sish va intellektual salohiyatning yuksalishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, postindustrial jamiyat sharoitida bilim va innovatsiyalar asosiy rivojlanish resursiga aylangani sababli, yuqori malakali intellektual kadrlarni tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylanmoqda. Shu jihatdan elitar tarbiya zamonaviy iqtisodiyotning “bilimlar iqtisodiyoti” modelini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ilm-fan va ta‘limga katta investitsiya kiritgan mamlakatlar global raqobatda ustunlikka erishmoqda. Masalan, Janubiy Koreya ta‘lim tizimi qisqa tarixiy davr ichida yuqori intellektual salohiyatga ega mutaxassislarni tayyorlash orqali mamlakatning texnologik rivojlanishiga kuchli turtki berdi. Samsung, Hyundai va LG kabi yirik kompaniyalarning global muvaffaqiyatida yuqori sifatli elitar ta‘lim tizimining o‘rni muhim bo‘lgan [Castells 1996 52]. Xuddi shuningdek, Singapurda ham iqtidorli yoshlarni saralash va ularni xalqaro standartlar asosida tayyorlash davlat taraqqiyotining asosiy strategiyasiga aylantirilgan. Bu tajribalar elitar tarbiyaning iqtisodiy rivojlanish va innovatsion taraqqiyot bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Elitar tarbiya jamiyatning ilmiy va madaniy salohiyatini oshirish bilan birga, kreativ tafakkur va innovatsion muhit shakllanishiga ham xizmat qiladi. Zamonaviy universitetlar, ilmiy markazlar va texnoparklar intellektual elita shakllanishining asosiy institutsional mexanizmlariga aylanmoqda. D. Bellning postindustrial jamiyat

nazariyasida ilmiy bilim va texnologik tafakkur jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida talqin qilinadi [Bell 1973 214]. Shu jihatdan elitar tarbiya zamonaviy sivilizatsiyaning innovatsion rivojlanish modelini ta'minlovchi ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'ladi. Biroq elitar tarbiyaning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda murakkab ijtimoiy oqibatlari ham mavjud. Ayrim hollarda sifatli ta'lim resurslariga kirish imkoniyatining cheklanganligi ijtimoiy tengsizlikning kuchayishiga olib keladi. P. Bourdieu ta'kidlaganidek, madaniy kapitalning notekis taqsimlanishi natijasida jamiyatdagi yuqori qatlam vakillari elitar ta'lim imkoniyatlaridan ko'proq foydalanadi [Bourdieu 1986 252]. Bu esa ijtimoiy tabaqalanishning mustahkamlanishiga sabab bo'lishi mumkin. AQSh va Buyuk Britaniyadagi ayrim nufuzli universitetlar faoliyati bunga misol bo'la oladi. Harvard, Oxford yoki Cambridge kabi oliy ta'lim muassasalariga kirish imkoniyati rasmiy jihatdan ochiq bo'lsa-da, amalda yuqori iqtisodiy va madaniy kapitalga ega oilalar farzandlari ustunlikka ega bo'lib qolmoqda. Natijada elitar ta'lim ijtimoiy mobilitet vositasi bo'lish bilan birga, ayrim hollarda mavjud tabaqalanishni qayta ishlab chiqaruvchi mexanizmga ham aylanishi mumkin.

Zamonaviy global tendensiyalar esa elitar tarbiyani yopiq modeldan ochiq va inklyuziv modelga o'tkazish zaruratini ko'rsatmoqda. Hozirgi davrda ko'plab davlatlar iqtidorli yoshlarni ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar qo'llab-quvvatlashga intilmoqda. Masalan, Finlandiya ta'lim tizimida teng imkoniyatlar tamoyiliga katta e'tibor qaratilib, barcha qatlam vakillari uchun sifatli ta'lim muhiti yaratilgan. Bu model elitar ta'limni ijtimoiy adolat bilan uyg'unlashtirish mumkinligini ko'rsatadi. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezident maktablari, ijod maktablari va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, xalqaro grantlar va stipendiya dasturlarining kengayishi iqtidorli yoshlarning global ta'lim imkoniyatlariga chiqishiga zamin yaratmoqda. Bu jarayon elitar tarbiyaning milliy taraqqiyot strategiyasidagi o'rnini mustahkamlab bormoqda.

XULOSA

Elitar tarbiya zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim ijtimoiy-falsafiy omillaridan biri sifatida inson kapitalining sifat jihatdan rivojlanishiga xizmat qiladi. U jamiyatda yuqori bilim, strategik tafakkur va innovatsion salohiyatga ega bo'lgan intellektual qatlamni shakllantirish orqali ilmiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning barqarorligini ta'minlaydi. Shu jihatdan elitar tarbiya faqat pedagogik tizim emas, balki jamiyatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'ladi. G'arb ilmiy an'anasida elitar tarbiya asosan ijtimoiy stratifikatsiya, hokimiyat va madaniy kapital bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Bourdieu, Mills, Weber va Pareto kabi olimlarning qarashlarida elita jamiyatdagi resurslar va boshqaruv mexanizmlarini nazorat qiluvchi qatlam sifatida baholanadi. Sharq ilmiy-falsafiy an'analari esa elitar tarbiya ko'proq ma'naviy yetuklik, komil inson va ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan bog'liq holda izohlanadi. Bu esa ikki ilmiy

paradigma o'rtasida metodologik farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Tadqiqot davomida intellektual elita tabiiy ravishda emas, balki sifatli ta'lim tizimi, ilmiy muhit, madaniy kapital va ijtimoiy institutlar orqali shakllanishi aniqlandi. Ayniqsa innovatsion iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan davrda kreativ fikrlovchi va strategik qaror qabul qila oladigan mutaxassislarni tayyorlash davlatlarning global raqobatbardoshligini belgilovchi omilga aylanmoqda. Shu sababli elitar tarbiya masalasi zamonaviy taraqqiyot modelining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Shu bilan birga, elitar tarbiya tizimining ayrim salbiy oqibatlari ham mavjudligi kuzatildi. Ta'lim resurslariga kirish imkoniyatlarining notengligi ayrim hollarda ijtimoiy tabaqalanish va tengsizlikning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli elitar ta'lim tizimini rivojlantirishda ijtimoiy adolat, inklyuzivlik va teng imkoniyat tamoyillariga amal qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Aks holda elitar tarbiya jamiyatda ijtimoiy tafovutlarni chuqurlashtiruvchi omilga aylanishi ehtimoli mavjud. Umuman olganda, elitar tarbiya jamiyatning intellektual salohiyatini yuksaltirish, innovatsion rivojlanishni jadallashtirish va ma'naviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi strategik tizim hisoblanadi. O'zbekiston sharoitida ushbu tizimni milliy qadriyatlar, zamonaviy ilm-fan va xalqaro ta'lim standartlari uyg'unligi asosida rivojlantirish muhim vazifalardan biridir. Bu esa kelajakda raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi va yuksak ma'naviyatga ega intellektual elita shakllanishiga zamin yaratadi.

BIBLIOGRAFIYA

1. Bourdieu P. (1986) The Forms of Capital. New York: Greenwood Press, b. 241–258.
2. Mills C. W. (1956) The Power Elite. Oxford: Oxford University Press, b. 3-27.
3. Gramsci A. (1971) Selections from the Prison Notebooks. New York: International Publishers, b. 12-45.
4. Sharifxo'jaev M. (2010) Davlat va boshqaruv nazariyasi. Toshkent: O'zbekiston, b. 55-78.
5. To'xtaxo'jaev N. (2017) Pedagogika nazariyasi. Toshkent: Fan va texnologiya, b. 80-110.
6. Bell D. (1973) The Coming of Post-Industrial Society. New York: Basic Books, b. 210-245.
7. Castells M. (1996) The Rise of the Network Society. Oxford: Blackwell Publishers, b. 35-74.
8. Weber M. (1978) Economy and Society. Berkeley: University of California Press, b. 926–940.
9. Pareto V. (1935) The Mind and Society. New York: Harcourt Brace, b. 1420–1435.
10. Michels R. (1915) Political Parties. New York: Hearst's International Library, b. 365–401.
11. Forobiy A. N. (1993) Fozil odamlar shahri. Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, b. 98–125.

12. Ibn Sino A. (1980) *Donishnoma*. Toshkent: Fan nashriyoti, b. 45–67.
13. Bell D. (1973) *The Coming of Post-Industrial Society*. New York: Basic Books, b. 210–245.
14. Bourdieu P. (1986) *The Forms of Capital*. New York: Greenwood Press, b. 241–258.
15. Castells M. (1996) *The Rise of the Network Society*. Oxford: Blackwell Publishers, b. 35–74.
16. Mills C. W. (1956) *The Power Elite*. Oxford: Oxford University Press, b. 3–27.
17. To‘xtaxo‘jaev N. (2017) *Pedagogika nazariyasi*. Toshkent: Fan va texnologiya, b. 80–110.

Курбонова Лола Абдиходимовна
доктор философских наук, профессор
Андижанский государственный университет
E-mail: lolaq805@gmail.com
(Андижан, Узбекистан)

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ ЭЛИТАРНОГО ВОСПИТАНИЯ В РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА И ЕГО РОЛЬ В ФОРМИРОВАНИИ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ ЭЛИТЫ

В процессе развития общества элитарное воспитание приобретает особое социально-философское значение, поскольку выступает важным механизмом формирования личности с высоким уровнем знаний, глубоким мышлением и интеллектуальным потенциалом. Однако нельзя исключать, что в ряде случаев подобная система может способствовать углублению социального неравенства, поскольку различия в доступе к образовательным ресурсам усиливают расслоение общества. Таким образом, статья направлена на анализ социально-философской сущности элитарного воспитания, его роли в формировании интеллектуальной элиты, а также выявление позитивных и проблемных тенденций в современном обществе.

Ключевые слова: Элитарное воспитание, интеллектуальная элита, социально-философский подход, инновационное развитие, культурный капитал, система образования.

Qurbonova Lola Abdikhodimovna
doctor of philosophical sciences, professor
Andijan State University
E-mail: lolaq805@gmail.com
(Andijan, Uzbekistan)

SOCIO-PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF ELITE EDUCATION IN SOCIETAL DEVELOPMENT AND ITS ROLE IN THE FORMATION OF THE INTELLECTUAL ELITE

In the process of societal development, elite education acquires a distinct socio-philosophical significance, as it serves as an important mechanism for forming individuals with high levels of knowledge, deep thinking, and intellectual potential. This strengthens a knowledge-based model of societal development and forms a system of professionals capable of operating effectively in conditions of global competition. However, it cannot be excluded that in some cases such a system may contribute to the deepening of social inequality, as disparities in access to educational resources intensify social stratification. Thus, the paper is aimed at analyzing the socio-philosophical essence of elite education, its role in forming the intellectual elite, and identifying both positive and problematic trends in contemporary society.

Keywords: Elite education, intellectual elite, socio-philosophical approach, innovative development, cultural capital, education system.

